

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSTETI



O'RGANILAYOTGAN MINTAQA (MAMLAKAT) IQTISODIYOTI  
(YAPONIYA IQTISODIYOTI)

FANINING O'QUV DASTURI

- Bilim sohasi:** 400000 - Biznes, boshqaruv va huquq
- Ta'lim sohasi:** 410000 - Biznes va boshqaruv
- Ta'lim yo'nalishi:** 60411800 - Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)

Toshkent – 2022

REPUBLIC OF SOUTH AFRICA  
MINISTER OF EDUCATION  
SCHOOL EDUCATION  
NATIONAL CURRICULUM AND ASSESSMENT DEVELOPMENT



PROVINCIAL EDUCATION OFFICERS' REPORT ON THE  
PROGRESS OF THE CURRICULUM AND ASSESSMENT DEVELOPMENT

PROVINCIAL EDUCATION OFFICER

PROVINCIAL EDUCATION OFFICER

PROVINCIAL EDUCATION OFFICER

PROVINCIAL EDUCATION OFFICER

PROVINCIAL EDUCATION OFFICER

*[Signature]* *[Signature]*  
*[Signature]* *[Signature]*

<b>Fan/modul kodi</b> O'MI14-820	<b>O'quv yili</b> 2022-2023 2023-2024 2024-2025 2025-2026	<b>Semestr</b> 4,5,6,7,8	<b>ECTS – Kreditlar</b> 4,4,4,4,4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4,4,4,4,4	
<b>I.</b> <b>Fanning nomi</b>  <b>O'rganilayotgan mintaq</b> <b>(mamlakat) iqtisodiyoti</b> <b>(Yaponiya iqtisodiyoti)</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>  <b>240</b>		<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>  <b>360</b>	<b>Jami yuklama soat</b>  <b>600</b>
<b>2. I. Fanning mazmuni</b> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> - talabalarga Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, uning tashqi iqtisodiy faoliyati, jahon xo'jalik tizimida tutgan o'rni va roli haqida bilim berish hamda ularda mazkur mamlakatni mustaqil o'rganish bo'yicha ilmiy izlanish olib borish ko'nikmalarini shakllantirishdir.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> - talabalarda Yaponiya iqtisodiyoti to'g'risida umumiy tasavvurni shakllantirish, Yaponiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining milliy modeli to'g'risidagi bilimlarning tizimligini ta'minlash, mazkur mamlakatning jahon xo'jalik tizimida tutgan o'rniga baho berish, iqtisodiy rivojlanishning asosiy tendensiyalarini tahlil qilishni o'rgatishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-MODUL. YAPONIYA IQTISODIY GEOGRAFIYASI</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mavzu. “Yaponiya iqtisodiyoti” fanining predmeti va metodi</b></p> <p>“Yaponiya iqtisodiyoti” fanining predmeti va vazifalari, fanning metodologiyasi, “Yaponiya iqtisodiyoti” fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqalari.</p> <p style="text-align: center;"><b>2- mavzu. Yaponiya iqtisodiyotiga umumiy tavsif</b></p> <p>Yaponiyaning iqtisodiy-geografik joylashuvi. Yaponiyaning tabiiy-iqtisodiy shart-sharoitlari, Yaponiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, Yaponiyaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.</p>				

### **3- mavzu. Yaponiyaning aholi va mehnat resurslari**

Yaponiya aholisi soni dinamikasi va tarkibi, Yaponiya aholisining tabiiy takror ishlab chiqarish ko'rsatkichlari: tug'ilish, o'lim, nikohdan o'tish va ajralishlar darajasi, bolalar o'limi, aholini tabiiy takror ishlab chiqarishning mintaqaviy xususiyatlari, aholining mexanik harakati: tashqi va ichki migratsiya, unga ta'sir etuvchi omillar, urbanizatsiya darajasi, Yaponiyada bandlik va uning tarkibi, bandlik darajasini oshirish yo'nalishlari. Yaponiyada demografik jarayoni va aholi qarish jarayonlarining davlat tomonidan tartibga solinishi, Yaponiya demografik siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

### **4- mavzu. Yaponiyaning yer va suv resurslari**

Yaponiyaning yer resurslari va uning tarkibi, Yaponiyaning o'rmon resurslari, Yaponiyaning asosiy suv manbalari, Yaponiyada yer va suv resurslaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.

### **5-mavzu. Yaponiyaning innovatsiya va ilmiy-texnika salohiyati**

Innovatsiya va ilmiy salohiyat tushunchasi, Yaponiya innovatsion salohiyatining asosiy ko'rsatkichlari (Nobel mukofoti laureatlari, YalM tarkibida ITTKI xarajatlari, Global Innovatin Index), Yaponiyada ilmiy-texnika va innovatsiya siyosati, Yaponiyaning innovatsiya salohiyati, fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi.

## **2-MODUL. YAPONIYA MILLIY IQTISODIYOTI TARKIBI**

### **6- mavzu. Yaponiyada iqtisodiy o'sish**

Iqtisodiy o'sish tushunchasi va unga ta'sir etuvchi omillar, Yaponiyada iqtisodiy o'sish dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar, globallashuv sharoitida makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'nalishlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Yaponiyadagi iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'siri va uni bartaraf etish chora-tadbirlari. Iqtisodiy o'sish dasturlari, prognozlari va strategiyalari.

### **7- mavzu. Yaponiya milliy iqtisodiyoti tarkibi va undagi tarkibiy o'zgarishlar**

Yaponiya iqtisodiyotining tarmoq tarkibi va uning dinamikasi, tarkibiy o'zgarishlar tushunchasi, Yaponiya iqtisodiyotining tarmoq tarkibidagi o'zgarishlar va unga ta'sir etuvchi omillar, Yaponiya iqtisodiyotining tarmoq tarkibini takomillashtirish yo'nalishlari.

### **8- mavzu. Yaponiyada qishloq xo'jaligi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari**

Agrosanoat majmuasi tushunchasi va uning tarkibi, Yaponiya qishloq xo'jaligining umumiy tavsifi: dinamikasi, YalMdagi ulushi, tarmoqda bandlar ulushi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti, samaradorlik, texnologik daraja, Yaponiyada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, Yaponiyada qishloq xo'jaligi

tarkibi: bog'dorchilik, chorvachilik, baliqchilik, o'rmonchilik, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammolari. Agrar siyosat, qishloq xo'jaligining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.

#### **9- mavzu. Yaponiya sanoat tarmoqlarining rivojlanish xususiyatlari**

Sanoat ishlab chiqarishining Yaponiya iqtisodiyotida tutgan o'rni va roli, qayta ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari Yaponiya eksportining asosi sifatida. Yaponiyada sanoat ishlab chiqarish dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar, sanoat ishlab chiqarishining tarmoq tarkibi, sanoat ishlab chiqarishining geografik (mintaqaviy) tarkibi. Sanoat siyosati, Yaponiya iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (METI)ning roli, Yaponiya sanoatining asosiy tarmoqlari tavsifi: mashinasozlik kompleksi, metallurgiya kompleksi, kimyo, farmasevtika, robotsozlik va boshqa tarmoqlar rivojlanishi.

#### **10 – mavzu. Yaponiyada xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish xususiyatlari**

Xizmat ko'rsatish sohasiga umumiy tavsif, iqtisodiyotni servizlashtirish omillari, Yaponiyada xizmat ko'rsatish sohasi tarkibi. Asosiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari, Yaponiyada xizmatlar eksporti.

#### **11- mavzu. Yaponiyada transport va aloqa tizimi**

Transport va aloqa tizimining milliy iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o'rni va roli, Yaponiyada transport va aloqa tizimining rivojlanish xususiyatlari, transport turlari, xalqaro va ichki transport, Yaponiyaning xalqaro transport tizimi rivojlanishida tutgan o'rni va roli.

#### **12- mavzu. Yaponiyada turizm sohasi rivojlanishi**

Turizmning Yaponiya iqtisodiyotida tutgan o'rni va roli, Yaponiyada turizm sohasini rivojlantirish omillari va shart-sharoitlari, turizm sohasini davlat tomonidan tartibga olish, turizm rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, Yaponiyada turistik mahsulot shakllanishi xususiyatlari, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Yaponiya turizmi rivojlanishiga ta'siri.

### **3-MODUL. YAPONIYA IJTIMOY-IQTISODIY TIZIMLARI**

#### **13- mavzu. Yaponiyada tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi**

Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati tushunchasi, Yaponiyada tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning me'yoriy-huquqiy asoslari, kichik va xususiy biznesning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va roli, kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi, kichik biznesni rivojlantirish istiqbollari, Yaponiyada venchur biznes.

#### **14 – mavzu. Yaponiyada yirik korporatsiyalarning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv xususiyatlari**

TMKlarning Yaponiya iqtisodiyotida tutgan o'rnini, TMKlar rivojlanishining asosiy yo'nalishlari, kichik va o'rta biznesning transmilliylashuvi, transmilliylashuv rivojlanishining asosiy tendensiyalari, Yaponiya TMKlarining jahon iqtisodiyotidagi o'rnini. Yaponiyada moliya-sanoat guruhlari, keyretsu, subpudratchilik tizimi.

#### **15- mavzu. Yaponiyada mehnat bozori rivojlanishining o'ziga xos jihatlari**

Mehnat bozorining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari. Yaponiyada mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solish, Yaponiya mehnat bozori rivojlanishining hozirgi holati, ishsizlik darajasi, Yaponiyada ishchi kuchi taklifi, ishchi kuchiga bo'lgan talab, Yaponiyada davlat bandlik xizmatlari faoliyati. Yaponiya mehnat bozorida asosiy tendensiyalar, muammolar va ularni bartaraf etish yo'nalishlari, Yaponiya immigratsiya siyosati.

#### **16 – mavzu. Yaponiya menejmentining asosiy konsepsiyalari**

Yaponiya menejmentining shakllanish bosqichlari, Yaponiya menejment modelining asosiy xususiyatlari: umrbod ishga yollash tizimi, konsensus, kadrlar rotatsiyasi tizimi, sifat krujoklari, sifat nazorati tizimi. Yaponiya menejmentining g'arb menejmentidan farqli tomonlari, Yaponiya menejmentining yutuq va kamchiliklari, Yaponiya menejmentining asosiy konsepsiyalari: Kaizen, "Just in time", Kanban.

#### **17- mavzu. Yaponiyada ijtimoiy siyosat va aholi turmush darajasi**

Ijtimoiy siyosatning mohiyati va asosiy yo'nalishlari, Yaponiyada aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar: aholining real daromadlari, o'rtacha ish haqi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi, Yaponiyada aholi daromadlari va xarajatlarining shakllanish xususiyatlari. Yaponiyada iste'mol savatchasi va uning tarkibi.

#### **18 – mavzu. Yaponiyada ta'lim tizimining rivojlanishi**

Ta'lim tizimining iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rnini va roli. Yaponiyada ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari va xususiyatlari, Yaponiyada ta'lim tizimi tarkibi va sifat ko'rsatkichlari, Yaponiya ta'lim tizimining yutuqlari va qiyosiy tahlili, Yaponiya ta'lim tizimining zamonaviy tendensiyalari va muammolari.

#### **19 – mavzu. Yaponiyada pensiya tizimi islohotlari**

Pensiya ta'minotining iqtisodiy munosabatlar tizimidagi ahamiyati, Pensiya tizimini isloh etish modellari, Yaponiyada pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari, Yaponiyada pensiya tizimi tarkibi va isloh etish yo'nalishlari

## **20- mavzu. Yaponiyada iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi**

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mohiyati va zaruriyati, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari va dastaklari, Yaponiyada iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish xususiyatlari.

## **21- mavzu. Yaponiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududiy xususiyatlari**

Yaponiyaning ma'muriy-hududiy bo'linishi, Yaponiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hududiy jihatlari, hududiy tafovutlar va ularning vujudga kelish sabablari, Yaponiyada hududiy tafovutni bartaraf etish yo'nalishlari, Yaponiya hududlari rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.

## **22- mavzu. Yaponiyada pul tizimi va pul-kredit siyosati**

Pul-kredit siyosati tushunchasi va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli, Yaponiyada pul-kredit (monetar) siyosatning asosiy yo'nalishlari, pul-kredit siyosatining asosiy vositalari, Markaziy bank va uning vazifalari, Yaponiya bank tizimi tarkibi va faoliyati yo'nalishlari.

## **23- mavzu. Yaponiyada moliya tizimi**

Moliya tizimining mohiyati va iqtisodiyotni tartibga solishdagi o'rni, Yaponiyada moliya tizimi faoliyatining o'ziga xos jihatlari, Yaponiya byudjet tizimi, Yaponiya davlat byudjeti daromadlarining shakllanishi manbalari, davlat byudjeti xarajatlari va uning tarkibi, byudjet defisiti va profisiti, "Abenomika" siyosatining mohiyati va uning natijalari.

## **24 – mavzu. Yaponiyada qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish xususiyatlari**

Qimmatli qog'ozlar bozori va uning moliya tizimini rivojlanishidagi o'rni, Yaponiyada qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish bosqichlari va dinamikasi, Yaponiyada qimmatli qog'ozlar bozori faoliyati, Yaponiya fond bozorining asosiy ishtirokchilari.

## **25- mavzu. Yaponiya soliq tizimi**

Soliq va soliqqa tortishning mohiyati va obyektiv zaruriyati, Yaponiya soliq tizimi faoliyatining o'ziga xos jihatlari, Yaponiyada soliqlarning turlari, bevosita va bilvosita soliqlar, ularning tarkibi, Yaponiyada soliq tizimi islohotlari, Yaponiyada tadbirkorlik muhitini yaxshilashda soliq imtiyozlarining roli.

## **4-MODUL. YAPONIYA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATI**

### **26- mavzu. Yaponiyaning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi yo'nalishlari**

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning nazariyalari, tajribasi va ko'rsatkichlari, Yaponiyaning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi ko'rsatkichlari, Yaponiyaning Osiyo Tinch okeani mintaqasidagi integratsion jarayonlardagi roli, Yaponiyaning

xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi ishtiroki.

### **27- mavzu. Yaponiyaning xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorligi yo'nalishlari**

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning jahon iqtisodiy tizimida tutgan o'rni va tasnifi, Yaponiyaning xalqaro iqtisodiy tashkilotlardagi ishtiroki: Yaponiya va Jahon Savdo Tashkiloti, Yaponiya va Xalqaro Valyuta Fondi, Yaponiya va Jahon banki, Yaponiyaning xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari.

### **28- mavzu. Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalari**

Yaponiya tashqi savdosi dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar, Yaponiya eksporti, uning tovar va geografik tarkibi, Yaponiya importi, uning tovar va geografik tarkibi, import tarkibini optimallashtirish yo'nalishlari, Yaponiyaning asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlari. To'lov balansi tarkibi.

### **29- mavzu. Yaponiyaning Yevropa Ittifoqi bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi**

Yaponiya va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning me'yoriy-huquqiy asoslari, Yaponiyaning Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga tovar va xizmatlar eksporti, uning tarkibi, Yaponiyaga Yel mamlakatlaridan import qilinadigan tovarlar dinamikasi va tarkibi.

### **30- mavzu. Yaponiyaning AQSh bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi**

Yaponiyaning AQSh bilan savdo aloqalari dinamikasi, Yaponiya- AQSh savdo-iqtisodiy aloqalarining asosiy yo'nalishlari, Yaponiya va AQSh o'rtasidagi eksport-import operatsiyalari va ularning tarkibi, Yaponiya va AQSh o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish istiqbollari.

### **31 – mavzu. Yaponiyaning Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo iqtisodiy aloqalari**

Yaponiyaning Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalari dinamikasi, Yaponiya va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari savdo-iqtisodiy aloqalarining asosiy yo'nalishlari, Yaponiya va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi eksport-import operatsiyalari va ularning tarkibi, Yaponiya va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish istiqbollari va tendensiyalari.

### **32- mavzu. Yaponiyaning MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari**

Yaponiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanishining me'yoriy-huquqiy asoslari, Yaponiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar, Yaponiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi tashqi savdo aloqalarining tovar tarkibi.



### **33- mavzu. Yaponiyaning O‘zbekiston bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi**

Yaponiyaning O‘zbekiston bilan savdo aloqalari dinamikasi, Yaponiya-O‘zbekiston savdo-iqtisodiy aloqalarining asosiy yo‘nalishlari, Yaponiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi eksport-import operatsiyalari va ularning tarkibi, Yaponiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish istiqbollari.

### **34- mavzu. Yaponiyaning investitsiya siyosati**

Investisiyalarning mohiyati va shakllanish manbalari, Yaponiya investisiya siyosatining asosiy yo‘nalishlari, Yaponiya iqtisodiyotiga kiritilgan investisiyalarning tarmoq va hududiy tarkibi, Yaponiyaning tashqi investisiya siyosati, Yaponiyadan xorijiy mamlakatlarga chiqarilgan investisiyalar dinamikasi va uning tarkibi, Yaponiyaning investitsion jozibadorligini oshirish yo‘llari va muammolari.

### **35- mavzu. Yaponiyada erkin iqtisodiy zonalar faoliyati**

Erkin iqtisodiy zonalarning mohiyati va tasnifi, milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jalik tizimiga integratsiyalashuvida erkin iqtisodiy zonalarning tutgan o‘rni va roli, Yaponiyada erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari, erkin iqtisodiy zonada faoliyat ko‘rsatayotgan kompaniyalarga taqdim etilgan imtiyozlar tizimi, Yaponiyada erkin iqtisodiy zonalarning tashqi savdosi dinamikasi.

## **III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. “Yaponiya iqtisodiyoti” fanining predmeti va metodi.
2. Yaponiya iqtisodiyotiga umumiy tavsif.
3. Yaponiyaning aholi va mehnat resurslari.
4. Yaponiyaning yer va suv resurslari.
5. Yaponiyaning innovatsiya va ilmiy-texnika salohiyati.
6. Yaponiyada iqtisodiy o‘sish.
7. Yaponiya milliy iqtisodiyoti tarkibi va undagi tarkibiy o‘zgarishlar.
8. Yaponiyada qishloq xo‘jaligi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari.
9. Yaponiya sanoat tarmoqlarining rivojlanish xususiyatlari.
10. Yaponiyada xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish xususiyatlari.
11. Yaponiyada transport va aloqa tizimi.
12. Yaponiyada turizm sohasi rivojlanishi.
13. Yaponiyada tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi.
14. Yaponiyada yirik korporatsiyalarning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv xususiyatlari
15. Yaponiyada mehnat bozori rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari.
16. Yaponiya menejmentining asosiy konsepsiyalari

17. Yaponiyada ijtimoiy siyosat va aholi turmush darajasi.
18. Yaponiyada ta'lim tizimining rivojlanishi
19. Yaponiyada pensiya tizimi islohotlari
20. Yaponiyada iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi.
21. Yaponiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududiy xususiyatlari.
22. Yaponiyada pul tizimi va pul-kredit siyosati.
23. Yaponiyada moliya tizimi.
24. Yaponiyada qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish xususiyatlari
25. Yaponiya soliq tizimi.
26. Yaponiyaning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi yo'nalishlari.
27. Yaponiyaning xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorligi yo'nalishlari.
28. Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalari.
29. Yaponiyaning Yevropa Ittifoqi bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi.
30. Yaponiyaning AQSh bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi.
31. Yaponiyaning Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo iqtisodiy aloqalari
32. Yaponiyaning MDH mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari.
33. Yaponiyaning O'zbekiston bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi.
34. Yaponiyaning investitsiya siyosati
35. Yaponiyada erkin iqtisodiy zonalar faoliyati

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan xonada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Yaponiya iqtisodiyotiga umumiy tavsif
2. Yaponiyaning aholi va mehnat resurslari
3. Yaponiyada qishloq xo'jaligi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari
4. Yaponiyaning yer va suv resurslari.
5. Yaponiyada iqtisodiy o'sish.
6. Yaponiyada ilmiy-texnika va innovatsiya siyosatining o'ziga xos xususiyatlari
7. Yaponiya iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari
8. Yaponiya mehnat bozorida ayollarning ishtiroki xususiyatlari
9. Yaponiya demografik siyosatining rivojlanish tendensiyalari
10. Yaponiyada transport infrastrukturasi rivojlanishi
11. Yaponiyada davlatning tabiiy monopoliyalarni boshqarishdagi roli
12. Yaponiya milliy iqtisodiyoti tarkibi va undagi tarkibiy o'zgarishlar.
13. Yaponiya sanoatining rivojlanish xususiyatlari.

14. Yaponiyada ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
15. Yaponiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududiy xususiyatlari (Tokio, Osaka, Kioto misolida)
16. Tokio Fond birjasining faoliyati yo'nalishlari
17. Yaponiyada Telekommunikatsiya va pochta tizimining rivojlanishi xususiyatlari
18. Yaponiyada turizm sanoatining rivojlanishi.
19. Yaponiyada tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi.
20. Yaponiyaning Jahon Savdo tashkiloti bilan hamkorligi xususiyatlari
21. Yaponiyaning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari xususiyatlari
22. Yaponiyaning Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan integratsiyalashuvi yo'nalishlari
23. Yaponiyada iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi.
24. Yaponiyada pul tizimi va pul-kredit siyosati.
25. Yaponiyada to'lov balansi defitsiti va uning iqtisodiyotga ta'siri
26. Yaponiya soliq tizimining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi roli.
27. Yaponiyaning Koreya Respublikasi bilan savdo-iqtisodiy aloqalari
28. Yaponiyada erkin iqtisodiy hududlarning rivojlanish xususiyatlari

#### **V.Fan bo'yicha kurs ishi**

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Kurs ishini yozish 3 kursning 2-semestriga mo'ljallangan bo'lib, unda kurs bo'yicha o'tilgan barcha mavzularni o'z ichiga qamrab oladi va talabalarga taqdim etiladi.

Kurs ishi uchun taxminiy mavzular:

1. Jahon iqtisodiyotida Yaponiyaning o'rni va roli.
2. Temir yo'l transportining Yaponiya iqtisodiy rivojlanishidagi roli.
3. Yaponiyada kichik va o'rta biznesning rivojlanishi.
4. Yaponiyada sanoat rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari
5. Yaponiyaning MDH mamlakatlari bozoriga kirib borish imkoniyatlari va istiqbollari
6. Yaponiyada turizm sanoatini rivojlantirish yo'nalishlari
7. Yaponiyada urbanizatsiya siyosatining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishdagi roli.
8. Yaponiyada servis sanoati iqtisodiyotni rivojlantirish omili sifatida.

	<p>9. Yaponiyada erkin iqtisodiy hududlarni barpo etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.</p> <p>10. Yaponiyaning Xitoy bilan savdo iqtisodiy aloqalari yo`nalishlari</p> <p>11. Yaponiya iqtisodiyotida davlat sektorining roli.</p> <p>12. Yaponiyada avtomobil tarmog`ining rivojlanish xususiyatlari</p> <p>13. Yaponiya menejment modelining o`ziga xos xususiyatlari</p> <p>14. Yaponiya kapitalning yirik eksporteri sifatida.</p> <p>15. Yaponiyada tashqi savdo aloqalarining rivojlanish tendensiyalari.</p> <p>16. Yaponiya mehnat bozorining zamonaviy tendensiyalari.</p> <p>17. Yaponiyaning iqtisodiy rivojlanishida innovatsiyalarning roli</p> <p>18. Abenomika siyosatining Yaponiya iqtisodiy rivojlanishidagi o`rni</p> <p>19. Yaponiyaning asosiy sanoat tarmoqlari rivojlanishi xususiyatlari</p> <p>20. Yaponiya Transmilliy korporatsiyalarining faoliyati yo`nalishlari</p>
3.	<p style="text-align: center;"><b>V. Fan o`qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o`zlashtirish natijasida kerak:</p> <p>- Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy bosqichlari va xususiyatlari; ularning resurs salohiyati: aholi va mehnat resurslari, mineral xom ashyo resurslari, yoqilg`i-energetika resurslari, yer va suv resurslari, innovatsiya va ilmiy-texnika resurslari, iqtisodiyotining tarkibi va undagi o`zgarishlar, Yaponiyada sanoat, qishloq xo`jaligi va xizmat ko`rsatish sohasining rivojlanishi; Yaponiyaning tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanishining asosiy tendensiyalari, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar xususiyatlarini <b><i>bilishi kerak</i></b>.</p> <p>Bular bilan bir qatorda bakalavr:</p> <p>- Yaponiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo`nalishlari, iqtisodiyotida kechayotgan tarkibiy siljishlar, mamlakatning tashqi savdosi dinamikasi, tarkibi hamda tashqi savdoni diversifikatsiyalash, Yaponiyaning boshqa mamlakatlar bilan kechayotgan integratsiya jarayonlari, globallasuv jarayonida Yaponiyaning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi muammolari, xalqaro mehnat taqsimotida mamlakatning o`rnini tahlil qilish <b><i>ko`nikmalariga ega bo`lishi kerak</i></b>;</p> <p>- Yaponiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qiyosiy tahlil qilish, statistik ko`rsatkichlar orqali Yaponiya rivojlanishining hozirgi holatini tahlil qilish va rivojlanish istiqbollari baho berish, iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi to`g`risida xulosalar chiqarish, ushbu mamlakatning rivojlanish tajribasini umumlashtirish asosida olingan tajribalarni O`zbekiston sharoitida qo`llash <b><i>malakalariga ega bo`lishi kerak</i></b>.</p>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma`ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> </ul>

- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5.

### VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirishi lozim.

6.

### Asosiy adabiyotlar

1. Закирова С.А. Экономика регионов мира. Учеб. пособие. Т. 2017. 472 с.
2. Furukava Tetsuya. Japanese economy. (古川徹也. 日本経済論. 東京: 倍風館, 2017年1月31日) Tokio: Baifukan 2017. P.230.
3. Белов А. Япония: экономика и бизнес. Санкт-Петербургский государственный университет, Литагент СПбГУ. 2014.

### Qo'shimcha adabiyotlar

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shahsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: "O'zbekiston", 2016. - 56 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 48 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
8. Vaxabov A.V. va boshqalar. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. T., 2015.-708 bet.
9. Мировая экономика и международные экономические отношения. учебник/под ред. А.С.Булатова.-3-е изд., перер.и доп. –М.:КноРус, 2017. - 916 с.

### Axborot manbalari

10. [www.meti.go.jp](http://www.meti.go.jp) (Yaponiya Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi - MITI)
11. [www.stat.go.jp](http://www.stat.go.jp) (Yaponiya statistika byurosi)
12. [www.jetro.go.jp](http://www.jetro.go.jp) (Yaponiya tashqi savdoni rivojlantirish tashkiloti - JETRO)
13. [www.boj.jp](http://www.boj.jp) (Yaponiya Banki)
14. [www.keidanren.or.jp](http://www.keidanren.or.jp) (Yaponiya iqtisodiy tashkilotlar federatsiyasi)

	<p>15. <a href="http://www.icci.or.jp">www.icci.or.jp</a> (Yaponiya savdo-sanoat palatasi)</p> <p>16. <a href="http://www.japanjournal.ru">www.japanjournal.ru</a> (Yaponiya tadqiqotlari elektron ilmiy jurnali)</p> <p>17. <a href="http://www.uz.emb-japan.go.jp">www.uz.emb-japan.go.jp</a> (Yaponiyaning O'zbekistondagi elchixonasi)</p> <p>18. <a href="http://www.mdn.mainichi.co.jp">www.mdn.mainichi.co.jp</a> ("Mainichi shinbun" gazetasi)</p> <p>19. <a href="http://www.nikkei.co.jp">www.nikkei.co.jp</a> ("Nikkei" gazetasi)</p> <p>20. <a href="http://www.unctad.org">www.unctad.org</a> (UNCTAD)</p> <p>21. <a href="http://www.imf.org">www.imf.org</a> (Xalqaro valyuta fondi)</p> <p>22. <a href="http://www.wto.org">www.wto.org</a> (Jahon savdo tashkiloti)</p> <p>23. <a href="http://www.worldbank.org">www.worldbank.org</a> (Jahon banki guruhi)</p> <p>24. <a href="http://www.japanstudies.ru">www.japanstudies.ru</a> (Yaponshunoslar assotsiatsiyasi)</p> <p>25. <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> (O'zbekiston statistika qo'mitasi)</p> <p>26. <a href="http://www.mfa.uz">www.mfa.uz</a> (O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi)</p> <p>27. <a href="http://www.invest.gov.uz">www.invest.gov.uz</a> (O'zbekiston Respublikasi davlat investitsiya qo'mitasi)</p>
7.	<p>O'quv dasturi "Yaponiya tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2022-yil " " _____ dagi " " –sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2022-yil "30" 06 dagi "11" –sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ul:</b></p> <p>Ergasheva D.A.– TDSHU "Yaponiya tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti" kafedrasida o'qituvchi-stajori</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>Qodirova Z.A. –TDSHU, "Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm" kafedrasida mudiri, PhD</p> <p>Voxidova M.X.–TDSHU, "Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm" kafedrasida o'qituvchisi, PhD</p>